



TEATR O'YINLARI ORQALI MAK TABGACHA KATTA YOSH DAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti

"Maktabgacha ta'lism metodikasi" kafedrasi dotsenti(PhD)

Zufarova Laziza Tolibjon qizi

Maktabgacha ta'lism 2-bosqich magistr

Kalit so'zlar: kommunikativ, muloqot, kompetensiya, ijtimoiy, ishbilarmonlik, konsepsiya, qobiliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada teatr o'yinlari orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Respublikamizda maktabgacha ta'lism tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta'minotini ishlab chiqishga katta ahmiyat qaratilmoqda. Shu bilan birgan, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lism tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirishning turli xil vositalarini ishlab chiqish, turli xil xalq ertaklarini teatr o'yinlari orqali bolalar ishtirokida sahnalashtirish jarayonida bolalarda ijtimoiy rivojlanishini, nutq madaniyati, kommunikativ qobiliyatini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lism va tarbiya to'g'risidagi" qonuni, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-som farmoni, 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lism tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3651-som qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu taqdidot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.



Maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kommunikativ ko'nikma bu – birinchi navbatda bola oilasidan, ota-onasi tomonidan to tug'ilganidan boshlab olib kelinadigan bilimlar va ko'nikmalardir. Bolalar o'zining muloqot qilish ko'nikmalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yanada rivojlantirib, ijtimoiylashib boradilar. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishi va tarbiyasi muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy dunyo bilan tanishish muammosi har doim bolaning shaxsiyatini shakllantirish jarayonida yetakchi muammolardan biri bo'lib kelgan. Bolaning to'laqonli ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishining eng muhim asosi - bu uning o'zini o'zi ijobiy idrok etishi: o'z qobiliyatiga, uni sevishiga ishonchidir. Ushbu mavzuning dolzarbliyi zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar bilan bog'liq. Hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda, gadgetlar maktabgacha yoshdagi bolalarni ham o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi. Aksariyat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan tashqarida, turli xil teleko'rsatuvarlar, video va roliklar tomosha qilish bilan o'zlarini band qilishmoqda. Bu esa kundan kunga ularni muloqotlashuviga, ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda biz bolaning shaxsiga, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi jarayonlar tahliliga murojaat qilamiz.

Zamonaviy jamiyat "o'zini" va hayotda o'z o'rnini topa oladigan, ma'naviy madaniyatini tiklaydigan, axloqiy jihatdan barqaror, ijtimoiy moslashgan, o'z-o'zini rivojlantirish va doimiy ravishda o'zini takomillashtirishga qodir bo'lgan tashabbuskor yoshlarni talab qiladi. Shaxsning asosiy tuzilmalari hayotning birinchi yillarida shakllantiriladi, demak, yosh avlodda bunday fazilatlarni tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanadi. Shu munosabat bilan, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanish muammosi - bolaning atrofidagi dunyo bilan o'zaro munosabatda rivojlanishi – ushu zamonaviy bosqichda dolzarb bo'lib qoladi.

Shunday qilib, bizning pedagogik faoliyatimizning maqsadi maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlanishini teatr o'yini faoliyati, sahnalashtirish orqali rag'batlantirishdir.

Teatr o'yinlarini sahnalashtirish kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, umumiy rivojlanishga yordam beradi, qiziquvchanlikni namoyon qiladi, yangi narsalarni o'rganishga yo'naltiradi, ma'lumot va yangi usullarni o'zlashtirish, fikrlashni rivojlantiradi, qat'iyatlilikni shakllantiradi. Bundan tashqari, ushu



o‘yinlar ijodiy qobiliyatlarni va ma’naviy ehtiyojni rivojlantiradi, o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshiradi.

Sahnalashtirish faoliyatining ta’lim imkoniyatlari keng. Unda ishtirok etgan bolalar rasmlar, ranglar, tovushlar, mohirlik bilan berilgan savollar orqali atrofdagi dunyo xilma-xilligi bilan tanishadilar, ularni o‘ylashga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga va umumlashtirishga harakat qiladilar. Aqliy rivojlanish nutq bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni ravon qiladi. Mazkur mashg‘ulotlarda bola nutqi personajlarga taqlid qilish harakati tufayli yaxshilanib boradi. Amalga oshirilgan rol, aytilgan gaplar orqali bola o‘z fikrini aniq, qisqa va lo‘nda ifoda etishga o‘rganadi. U o‘zining dialogik nutqini, uning grammatik tuzilishini yaxshilaydi.

Tarbiyachilar bolaning nutqini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi nutqning juda yuqori foizi kattalarni bolalarga bo‘lgan muloqotidan iboratligini kuzatishgan. Kamroq foizni esa bolalarni kattalarga qaratilgan suhbati tashkil etadi. Bolaning boshqa bola bilan o’zaro muloqoti, albatta, bolalar o’z guruhlarida ishlayotganda yoki ovqatlanish va o‘yin vaqtida sodir bo’ladi, lekin e’tiborni tortadigan darajada tan olinmagan. Bu jarayon o’zaro bolalar bilan muloqotga kirishish tabiatan yaxshi kommunikativ rivojlangan bolalar uchun muammo emas. Shuning uchun muloqotga kirishishga qiynaladigan bolalar uchun tengdoshlari bilan samarali muloqot qilishni o’rganishga yordam berish juda muhimdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sog’lom, ham ma’naviy, ham jismoniy yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. So’nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, talim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida etibor berilmoqda.

Xulosa qiladigan bo’lsak, bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o’quv metodik adabiyotlar, o’quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg’or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘inidir. Avvallari bu tizim xalq xo‘jaligining turli sohalarida mehnat qilayotgan ota-onalarning ijtimoiy faoliyati uchun shart-sharoit yaratishgagina xizmat qilgan bo‘lsa, endilikda bolalar bog‘chalari ish mazmuniga qo‘yilgan talablar ham o‘zgartirildi. Asosiy vazifalardan



biri kichkintoylarni mакtab bosqichida o‘qishga tayyorlashdir. Bolalar bog‘chalari tarbiyalanuvchilariga ta’lim berishda maktablar o‘quv dasturlariga yaqinlashtirilgan yo‘nalishli yangi dasturlar ishlab chiqilgani, sinovdan o‘tkazilib, joriy etishga kirishildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda bu dasturlarni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xasanova, S. (2022). ORGANIZATION OF A DEVELOPING EDUCATIONAL SPACE AS A FACTOR OF A CHILD'S READINESS FOR SCHOOL. *Science and Innovation*, 1(8), 2199-2203.
2. Xasanova, S. (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК ФАКТОР ГОТОВНОСТИ РЕБЕНКА К ШКОЛЕ. *Science and innovation*, 1(B8), 2199-2203.
3. Khasanova, S. (2021). THE ROLE OF HISTORICAL ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE FORMATION OF NATIONAL PRIDE BY PRESCHOOL ADULT CHILDREN. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* (pp. 103-107).
4. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 734-738.
5. Sh.T.Xasanova. Tarixiy obidalar bolalarda milliy g’ururni shakllantirish vositasi sifatida. «Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists». №4(1) 2023.ISSN 2181-5186.
6. Хасанова, Ш. Т. (2012). Формирование элементов национальной гордости у детей старшего дошкольного возраста посредством архитектурных памятников. *Педагогические науки*, (1), 70-73.
7. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
8. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
9. Barbo, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.
10. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(10), 118–122.
11. Ergasheva Ba’rno Ziyaviddin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA VA XORIJUY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI . *Лучшие интеллектуальные исследования*, 10(4), 69–74.